

KUZGI JAVDAR YETISHTIRISH TEXNOLOGIYALARI.

Технологии выращивания озимой ржи.

WINTER RYE GROWING TECHNOLOGIES.

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti magistr talabasi
Ibadullayeva Maftuna Umirbek qizi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada kuzgi javdar yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalari, jumladan tuproqni tayyorlash, optimal ekish muddati, ekish me'yorlari, o'g'itlash va sug'orish tizimlari yoritilgan. Shuningdek, o'simlikning biologik xususiyatlari, iqlim va tuproq sharoitiga moslashuvi hamda yuqori hosildorlikka erishishda agrotexnik tadbirlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kuzgi javdar, agrotexnologiya, tuproq tayyorlash, ekish muddati, ekish me'yori, o'g'itlash, sug'orish, hosildorlik, don sifati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные агротехнологии выращивания озимой ржи, включая подготовку почвы, оптимальные сроки посева, нормы высева, системы удобрения и орошения. Также анализируются биологические характеристики растения, его адаптация к климатическим и почвенным условиям, а также важность агротехнических мер для достижения высоких урожаев.

Ключевые слова: озимая рожь, агротехнология, подготовка почвы, сроки посева, норма высева, удобрение, орошение, урожайность, качество зерна.

Abstract. This article discusses modern agrotechnologies of winter rye cultivation, including soil preparation, optimal sowing dates, sowing rates, fertilization and irrigation systems. It also analyzes the biological characteristics of the plant, its adaptation to climatic and soil conditions, and the importance of agrotechnical measures in achieving high yields.

Keywords: winter rye, agrotechnology, soil preparation, sowing date, sowing rate, fertilization, irrigation, yield, grain quality.

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda aholini sifatli oqsil mahsulotlariga bo'lgan extiyojlarini qondirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir.



Respublikamizda keyingi yillarda aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ichki bozorni oqsilga boy bo'lgan don mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga qaratilgan qiymat zanjirini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'grisida" gi PF-5853-sonli Farmonida oqsilga boy bo'lgan boshqoqli don ekinlarini yangi avlod navlarini yaratish va yetishtirish agrotexnikalarini ishlab chiqish bo'yicha qishloq xo'jaligi xodimlari oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzgi javdar asosan sovuq va mo'tadil iqlimli hududlarda keng tarqalgan: eng yirik ishlab chiqaruvchi sifatida Rossiya, Germaniya, Polsha, Belarus, Ukraina, AQShda asosan chorvachilik uchun ekiladi. Bu davlatlarda javdar non mahsulotlari va yem-xashak sifatida muhim ahamiyatga ega. Qumloq va kam unumdor tuproqlarda ham yetishtiriladi. Sovuqqa eng chidamli don ekinlaridan biri.

O'zbekistonda kuzgi javdar sug'oriladigan va lalmikor yerlarda ekiladi. Kuzgi javdar O'zbekistonda oraliq ekin, yashil massasi va doni uchun yetishtiriladi. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi javdar oraliq ekin sifatida yetishtirilganda yashil massa hosili 300-350 s/ga ga yetadi. Doni uchun kam ekiladi [2].

Sug'oriladigan yerlarda, almashlab ekishlarda, g'o'zadan keyin oraliq ekin sifatida yetishtiriladi. Sholichilikka, paxtachilikka, ixtisoslashgan xo'jaliklarda kuzgi javdar sideratsiyada qo'llaniladi.

Lalmikorlikda toza yoki band shudgorga joylashtirilganda yuqori hosil beradi. Kuzgi javdarning kuzgi bug'doyga nisbatan o'tmishdoshlarga talabchanligi kam.

Kuzgi javdar yashil o'g'it sifatida qo'llanilib g'o'za ekilganda, paxta hosildorligi gektaridan 3-4 s ga oshgan. Kuzgi javdardan keyin joylashtirilgan g'o'zaning vilt bilan kasallanishi keskin kamayadi [3].

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi javdar uchun eng yaxshi o'tmishdoshlar: g'o'za, kartoshka, sabzavot, poliz, dukkakli don, qand lavlagi.

Kuzgi javdarni o'zi ham juda ko'p qishloq xo'jalik ekinlari (kartoshka, ildizmevalar, makkajo'xori) uchun yaxshi o'tmishdosh. Bir yillik ikki pallali begona o'tlarga agrotexnik usulda qarshi kurashishda keng qo'llaniladi.

Kuzgi javdar bir maydonga don uchun surunkasiga ikki yil ekilganda ham yaxshi hosil beradi.



Sug'oriladigan yerlarda o'stirish texnologiyalariga rioya qilinganda har gektardan 50-60 s don hosili yetishtiriladi [4].

O'zbekistonda kuzgi javdarning bug'doy bilan duragayi tritikale doni va yashil massasi uchun ko'plab ekilmoqda.

O'g'itlash. Kuzgi javdar uchun o'g'itlash tizimini ishlab chiqishda kimyoviy agroxaritalardan foydalanib azot, fosfor, kaliy bilan tuproqning ta'minlanganligi hisobga olinadi.

Kuzgi javdar 1 s don va shunga muvofiq somon hosil qilish uchun 3,1 kg azot, 1,37 kg fosfor va 2,6 kg kaliy o'zlashtiradi. Ma'danli o'g'itlar solingan yili, solingan azotli o'g'itlarning 65 % i, fosforning 32 % i, kaliyni 70 % ini kuzgi javdar o'zlashtirdi [5].

Kuzgi javdar donga nisbatan ikki baravar ko'p somon hosil qiladi. Shuning uchun kuzgi bug'doyga nisbatan ma'lum miqdordagi biomassa hosil qilganda 15-20 % kam don hosili olinadi. Kuzgi javdarda N, P, K nisbati -1:0,44:0,84 ni tashkil qiladi [6]

Gektaridan 45-50 s dan hosil olish uchun o'rtacha 110-112 kg azot, 105-110 kg fosfor, 82-92 kg kaliy solinadi. Bunda albatta agrokimyoviy xarita ko'rsatkichlari hisobga olinadi [7]

O'zbekiston sharoitida gektariga 15-20 t go'ng solish (sug'oriladigan yerlarda) 8-10 s ga qo'shimcha don hosili olishni ta'minlaydi. Dukkakli o'tlardan shabdard, bersim, qizil se bargani yashil o'g'it sifatida tuproqqa haydab tashlash ham kuzgi javdar don hosilini sezilarli darajada oshiradi.

Ekish paytida gektariga 10-15 kg granulalangan superfosfat yoki ammos fosfa shaklida fosfor solish hosildorlikni 3-4 s/ga ga oshiradi.

Fosforli o'g'itlarning 80-85 % i, kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori, organik o'g'itlar yerni haydash oldidan solinadi. Azotli o'g'itlar erta bahor va naychalash fazalarida oziqlantirishlar sifatida beriladi.

Erta bahorda azotli oziqlantirish 40-50 kg/ga me'yorda vegetatsiyaning boshlanishi bilan SZ-3,6 yoki NRU-05 o'g'it sepgich mashinalarda o'tkaziladi. Ikkinchi oziqlantirish NRU-0,5 mashinalarida 5-10 aprelda o'tkaziladi.

Tuproqni ishlash. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi javdar uchun tuproqni ishlash kuzgi bug'doynikidan farq qilmaydi. Birinchi ekin hosilidan bo'shagan dala darhol 25-27 sm chuqurlikda haydaladi va bir yo'la boronalanadi. Ekish oldidan chizellanadi yoki 1-2 kultivatsiya qilinadi.



Ekish. Kuzgi javdarni ekishda tozaligi 97 %, unuvchanligi 90 % dan kam bo‘lmagan, sifatli, dorilangan, yirik urug‘lardan foydalaniladi. Ekish oldidan urug‘lar raksil (2 %) preparati bilan 1,5 kg/t hisobida «Mobitoks» yoki PS-10 mashinalarida 8-10 l suv bilan bir tonna urug‘ga hisobida ishlanadi.

Kuzgi javdarda hosilni yig‘ishtirgandan keyin urug‘larning yetilishi 1 oy atrofida bo‘ladi. Yangi yig‘ishtirilgan urug‘larning unuvchanligi past bo‘ladi. Urug‘larni oltobda quritish, vaqti-vaqti bilan har 2-3 soatda ag‘darib turish ular unuvchanligini oshiradi [8].

Ekish muddatlari. Kuzgi javdar urug‘lari sovuq tushguncha 45-60 kun qolganda ekilishi va qish tushguncha 3-5 poyalar hosil qilishi lozim. Juda erta ekilganda me‘yoridan ortiq o‘sib ketadi, qishga, kasalliklarga chidamliligi pasayadi.

O‘zbekistonda Samarqand viloyatida, sug‘oriladigan yerlarda oktabrning birinchi, ikkinchi o‘n kunligi, janubiy viloyatlarda oktabrning uchinchi, noyabrning birinchi o‘n kunligida, Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida oktabrning birinchi o‘n kunligida ekish eng maqbul ekish muddatlaridir.

Lalmikorlikda kuzgi bug‘doy ekish muddatlari bilan bir xil.

Ekish usuli. Kuzgi javdar qator oralari 15,7-8 sm va qatorlarni kesishtirib ekiladi. Sug‘oriladigan yerlarda qatorlab (15 sm) ekish yaxshi natija beradi.

Ekish me‘yori. Sug‘oriladigan yerlarda gektariga 3-4 mln unuvchan urug‘ (100-120 kg/ga) ekiladi. Ekish optimal muddatdan kechikkanda, ekish me‘yori 10-15 kg/ga ga oshiriladi.

Ekish chuqurligi. Urug‘lar og‘ir, loy tuproqlarda 3-4 sm chuqurlikka, yengil, qumoq tuproqlarda 5-6 sm chuqurlikka ekiladi. Urug‘larni ekish chuqurligi belgilanayotganda tuproqdagi namlik, urug‘larning yirikligi ham e‘tiborga olinadi.

Sug‘orish. Kuzgi javdarni sug‘orish rejimi nam to‘playdigan sug‘orishlar va o‘suv davridagi sug‘orishlardan iborat. Nam to‘playdigan sug‘orishlar fonida 3-4 o‘suv davridagi sug‘orishlarni 500-600 m³ /ga me‘yorda o‘tkazish yuqori hosil olishni ta‘minlaydi [9].

Ekin parvarishi begona o‘tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi uyg‘unlashgan usullarda kurashdan, yotib qolishning oldini oluvchi reterdantlarni qo‘llashdan iborat.

Hosil bir va ikki fazali usullarda yig‘ishtiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlat ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 tildagi PF-5853-son
2. Атабаева Х., О. Қодирхўжаев - Ўсимликшунослик, Т.Янги аср авлоди, 2006, 298 б
3. Курбонов Г., Норматов Б., Маҳамматова М. Дала экинлари селекцияси ва урғчилиги. Тавсиянома. - Тошкент, 2003. - 6 б.
4. Попов Г. И., Васко В. Т., Пугач. Н. Г. Селекция озимой ржи. Л.: Агропромиздат, 1986. -239с
5. Сатипов Г.М.Ўсимликшунослик. Урганч. 2004 й.
6. Файзуллаев А.Б. Изучения роста, развития и урожайности озимой ржи в зависимости от сроков сева и ном высева \ \ Материалы IX международной научно - практической конференции. Книга -2. Барнаул, 2014 г. 5 - 6 феврал, 284 ст.
7. Fayzullaev A.B., Abdurahimov U.Q., Madaminov R.R. Xorazm viloyatida ekish muddati va me'yorlarining kuzgi javdar o'sishi, rivojlanishi va hosil strukturasi ta'siri //Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Xiva, № 2 son, 2014 y.
8. Файзуллаев А.Б., Матякубова И.Д., Полвонов С.М. Влияние сроков сева и норм высева на посевные качества и продуктивность семян озимой ржи //Материалы ВИИИ международной научно - практической конференции. Книга -2. Барнаул, 2013 г. 6 - 7 февраль, 256 ст.
9. А.И. Shleyxer va boshqalar- Paxtachilikdan laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent 1980 y.